

**YOSHLARNI INTERNETDAGI AXBOROT HURUJLARI VA
MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN ASRASH****Saparova Gulbaxar Aytbaevna***Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori*

ANNOTATSIYA: Maqolada bugungi kunga kelib globallashuv jarayonida dunyoda g'oyaviy, mafkuraviy kurash ya'ni dunyoni g'oyaviy jihatdan bo'lib olishga bo'lgan urinish kuchayib bormoqda. Albatta, bunday vaziyatda mustaqilligimizni mustahkamlash, uning barqarorligini, farovonligini, tinchligini va kelajagini ta'minlash har birimizning yuksak burchimiz masalalari muhokama qilinadi. Insonning qalbi va ongiga joy bo'lgan milliy ma'naviy-ahloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Shunday ekan, dastlab, yoshlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalari yo'nalishdagi bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish didaktik vositasida kompyuter va boshqa zamonaviy texnik vositalardan maqsadli foydalanish, internet va ommaviy axborot vositalarining o'zga manbalarida e'lon qilinayotgan ma'lumotlarni tasarruf etish, yangi axborot, fakt va ma'lumotlarni yig'ish, saralash va qayta ishlash bilan o'quv jarayoniga tatbiq etish haqidagi bilimlarga va uni amaliyotda qo'llash mahoratiga ega bo'lish alohida o'rin tutadi.

Kalit sózlar: yoshlar, internet, axborot hurujlari, mafkuraviy tahdidlar, ishonchsizlik, ikkilanish, parokandalik, tartibsizlik, tinchlik, barqarorlik, milliy taraqqiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tafakkur, ong

Ключевые слова: молодёжь, интернет, информационные атаки, идеологические угрозы, незащищённость, неопределённость, беспорядок, стабильность, национальное развитие, информационно-коммуникационные технологии, мышление, сознание

Mamalakatimizga nisbatan amalga oshirilgan va oshirilayotgan axborot xurujlarining asosiy maqsadi-davlat va xalq o'rtasida ishonchsizlikni, aholida shubha, ikkilanish, parokandalik, tartibsizlikni keltirib chiqarishdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida mamlakatimiz davlat apparatiga nisbatan turli kuchlar tomonidan ta'sir qilish, muayyan talablarini bajartirish maqsadida axborot xurujlari tashkil qilib kelinayotganligi ma'lum. Bu ayni paytda yurtimizdagi tinchlik, barqarorlik, milliy taraqqiyot yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshi qaratilgan harakatlardir.

XXI asrda axborot urushinig o'ziga xos jihati urush vositalari, uslublarining ko'paygani, takomillashganida ko'rinadi. Bugungi kunda bunday urush internetda, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar orqali ham olib borilmoqda.

Ayrim mutaxassislar tomonidan psixoterapiya metodlari yakka shaxsga qanday ta'sir etsa axborot urushining metodlari ommaviy ongga shunday ta'sir qilishini ta'kidlashadi.

Axborot xurujiga berilgan turlicha ta'riflar mavjud. Rossiyalik ayrim mutaxassislarning fikricha axborot xuruji bu-raqib ustidan axborot hukmronligiga erishish va shuning e'vaziga unga moddiy, mafkuraviy yoki boshqacha zarar etkazish uchun davlatning harbiy kuchlari, hukumati hamda xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar va operatsiyalar majmuasidir.[1]

Axborot xurujlari ta'siriga eng ko'p beriladigan aholi qatlami bu yoshlardir. Afsuski, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi axborot tahdidlarining ham kuchayishiga olib kelmoqda. Internet vositasida ishlaydigan dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali juda katta oqimda ma'lumotlar almashishi ro'y bermoqda. Ular asosan qiziqarli voqealar, gap-so'zlar, shou-biznes, sport xabarlar, yangiliklardan iborat. Biroq hech kim tashqi kuchlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlardan o'z maqsadi yo'lida foydalanmaydi, deb kafolat bera olmaydi. Misol uchun, Telegram messenjerida ba'zi bir guruhlarining ishtirokchilari soni 50 000 dan oshadi. Shunday guruhlar borki, unda asosan fahsh fotosuratlari, video lavhalar joylashtirilmoqda. Bu ma'naviyati, madaniyatida qusur bo'lgan shaxslarni o'ziga jalb qilish uchundir. Aynan shunday toifa kishilar o'zlariga javob berisha olmaydi. Keyinchalik bunday kanallarda siyosiy mavzuga taalluqli ma'lumotlar tarqatilishi va guruh a'zolarining fikrini o'zgartirishga, ma'lum bir yo'nalishga solishga harakat qilinishi mumkin.

Axborot xurujlariga qarshi kurashda kurashning tizimli bo'lishligi, uning zarur huquqiy bazasi shakllantirilganligi o'ta muhim. Shu bois axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan alohida qonun hujjati qabul qilish masalasi ko'rib chiqilishi kerak.

Shu bilan birga, bunday xurujlarga qarshi kurashda quyidagilar muhim:

- axborot makonini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar, aholining qiziqishi yuqori bo'lgan masalalar haqidagi obyektiv va pozitiv axborot bilan doimiy ravishda to'ldirib borish;

- fuqarolarimizda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan kompleks choralar ko'rilishi kerak. Xususan, yoshlarimizni tafakkur qilishga, har qanday axborotni tahlil qilib so'ng xulosa chiqarishga o'rgatishimiz zarur;

- mamlakatimiz, davlat apparati, rahbarlar haqida noto'g'ri ma'lumotlar, tuhmat, uydirmalar, buzilgan axborot tarqatuvchi har qanday axborot vositalari faoliyatiga qonun doirasida chek qo'yish;

- aholiga chet ellarda turib mamlakatimiz to'g'risida noto'g'ri, bir taraflama axborot tarqatuvchi axborot vositalari, shaxslarning asl qiyofasini ochib beruvchi axborotni etkazish;

- milliy g'oya, mafkura, ma'naviyat tushunchalari, shu jumladan fuqarolarimizning vatanparvarligi axborot xurujlariga qarshi muhim omillardir. Bu yo'nalishda amalga oshirayotgan ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish;

- "beshinchi kolonna"ni aniqlash va ularga nisbatan tegishli choralarni ko'rish tizimli tarzda davom ettirilishi kerak. Chunki aynan "beshinchi kolonna" tashqi kuchlarning buzg'unchi g'oya, axborotlarini tarqatishda vositachi vazifasini bajaradi.

Darhaqiqat, XX asrning oxiri va asrimiz boshiga kelib hayotimizda “axborot asri”, “axborotlashgan jamiyat”, “axborot xuruji” kabi tushunchalar paydo bo’ldi. Bu esa bugungi kunda axborot tushunchasining ahamiyati oshganligidan, qamrovi kengayganligidan, maqsad-muddaosi o’zgarayotganligidan darak beradi.

Axborot endi biror jarayon, voqelik yoki hodisa haqida xabar berish ma’nosidan chetga chiqib, insonlar ongi va ruhiga ta’sir etishning, jamiyatda mavjud qonun-qoidalarini va butun dunyo e’tirof etgan umuminsoniy qadriyatlar va tushunchalarni ma’lum maqsad atrofida birlashgan ayrim guruh va jamoalarning manfaatlariga xizmat qiluvchi o’ziga xos yangi talqinlarini yuzaga chiqarishning; siyosiy, iqtisodiy, harbiy, diniy va boshqa bir qancha qarashlarning targ’ibotchisiga aylanib bormoqda.[2]

Buning natijasida, insoniyat taraqqiyotining ayni pallasida axborotning omma ongiga ta’siri va uning salbiy oqibatlari jamiyatning jiddiy muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Endi axborot atalmish qurol vositasida inson ongiga hujum qilish natijasida uning tafakkuri va intellektini egallash, o’z auditoriyasini kengaytirish bilan qudratini oshirish orqali ularni qaysidir g’oya atrofida birlashgan kuchlarning maqsadlariga xizmat qildirish bilan bog’liq “urush”ning zamonaviy ko’rinishlari paydo bo’ldi.

Taraqqiyotning hozirigi bosqichiga kelib, dunyo axborot makonida munosib o’rin egallashga erishish uchun moddiy ko’rinish va shaklga ega bo’lmagan, faqat aql bilan ko’rish va tafakkur bilan anglash mumkin bo’lgan jiddiy kurash avj olmoqda. Soha mutaxassislarining fikricha, axborot qurollari tushunchasi ostida biror xalq, millat mentaliteti, madaniyati, ma’naviyati, dini, davlatning informacion va harbiy tizimiga salbiy ta’sir o’tkazadigan maxsus dezinformacion texnologik vositalarning muayyan tizimi yotadi.

Axborotga bo’lgan ehtiyojning qondirilishi ijobiy holat, ammo hech qanday asosga ega bo’lmagan, bir qarashda beozorgina bo’lib ko’ringan, lekin maqsad-muddaosi g’arazli bo’lgan axborotlarga yoshlarning aldanib qolayotganligi tashvishlanarlidir. [3]

Davlatlarning siyosiy qarashlarini noto’g’ri talqin qiluvchi, turli ekstremistik va terroristik g’oyalarni, insoniyatga qarshi qurol ko’tarishga undovchi, o’z-o’zini o’ldirishga chaqiruvchi, narkotik va odam savdosi bilan bog’liq maqsadlarni ko’zlovchi, “ommaviy madaniyat”ni targ’ib qiluvchi barcha axborotlar o’ziga xos ta’sir etish imkoniyatlariga egaki, bu “aldamchi jilvalanishlar”ga, ko’p hollarda, aqliy va ma’naviy jihatdan hali to’la shakllanib ulgurmagan yoshlar “maftun” bo’lib qolmoqda.

Hatto bunday g’arazli maqsadlar o’z tabiati bilan ezgulikka xizmat qilishi kerak bo’lgan san’at asarlari (kino, animacion filmlar, musiqa, qo’shiq, raqs va b.) zahiriga ham singdirib yuborilmoqdaki, bu kabi “kadr ortidagi maqsad”ni anglash uchun insonlardan teran aql-zakovat va hozirda bir qaraganda ko’rish mumkin bo’lmagan, ammo real mavjud “axborot xurujlari”ga qarshi immunitet shakllangan bo’lishi lozim.[4]

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun yana quyidagi ishlarni taklif qilmoqchimiz:

-axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish, xususan, alohida qonun hujjati qabul qilish masalasini ko’rib chiqish;

-milliy axborot makonimizni aholining qiziqishini inobatga olgan holda jarayonlarni obyektiv va pozitiv yorituvchi mahalliy va xorijiy axborotlar bilan muntazam to'ldirib borish;

-xalqimizning, xususan, yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini o'stirish, undagi har qanday axborotni tafakkur va tahlil qilib, so'ng xulosa chiqarishga o'rgatishimiz zarur;

-mamlakatimiz to'g'risida noto'g'ri, bir taraflama axborot tarqatuvchi har qanday xorijiy axborot vositalari faoliyatiga qonun doirasida chek qo'yish, bu kabi axborotlari uchun ularning javobgalligini oshirish va tarqatilgan axborotlarning bir taraflama yoki noto'g'ri ekanligini mutaxassislar ishtirokida xalqimizga o'z vaqtida etkazish;

-o'rta maxsus va professional ta'lim, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta'minlash, xususan, axborot xurujlari, uning shakl va ko'rinishlari, maqsadi va salbiy oqibatlari borasida maxsus kurslar o'tilishini ta'minlash;

-milliy g'oya, mafkura, ma'naviyat, vatanparvarlik kabi tushunchalar targ'iboti borasida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik bilan davom ettirish.[5]

Chunki, hozirgi dunyoning globallasuvi sharoitida axborot-kommunikacion texnologiyalaridan unumli foydalanish dolzarb masalaga aylandi. "Nega deganda, hozirgi paytda er yuzining qaysi chekkasida bir voqea yuz bermasin, odamzod bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas"[6]. Bunda axborot-kommunikaciya texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotganligi asos bo'lmoqda.

Shunday ekan, dastlab,

-yoshlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalari yo'nalishdagi bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish didaktik vositasida kompyuter va boshqa zamonaviy texnik vositalardan maqsadli foydalanish;

-internet va ommaviy axborot vositalarining o'zga manbalarida e'lon qilinayotgan ma'lumotlarni tasarruf etish;

-yangi axborot, fakt va ma'lumotlarni yig'ish, saralash va qayta ishlash bilan o'quv jarayoniga tatbiq etish haqidagi bilimlarga va uni amaliyotda qo'llash mahoratiga ega bo'lish muhimdir.

Chunki, ta'lim jarayonida mazkur texnologiyalar kundan-kunga chuqur o'rin egallab bormoqda. Buning natijasi sifatida ta'lim-tarbiyada avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan, kommunikativ texnologiyalardan va kompyuterli tizimlardan unumli foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. [7]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, axborot tushunchasi bugungi kunda har doimgidan ham kengroq ma'no va mazmun kasb etib bormoqda. Bugun biz yashab turgan zamon va makonda bizga bog'liq bo'lmagan holda gohida oshkora, aksariyat hollarda pinhona tarzda harakat qiluvchi "axborot xuruji" atalmish qurol yuzaga keldiki, bu qurol vositasida endi inson ongiga egalik qilish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu salbiy illatdan xalqimizni, xususan, yosh avlodni himoya qilish, ularda "axborot xuruji"ga qarshi immunitetni shakllantirish har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.X.Meliev. Axborot xurujlariga qarshi samarali kurashning ustuvorligi.T. [Jamiyat](#) 28.09.2016,
- 2.Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137
- 3.Burkhonov, A., Avlaev, O., Abdujalilova, S., & Otaev, A. (2021). Responsibility as a criterion for determining personal maturity. In E3S Web of Conferences (Vol. 244, p. 11059). EDP Sciences
- 4.Karimov I.M., Turgunov N.A. Axborot xavfsizligi asoslari. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi nashriyoti, 2016 yil, 98 b.
- 5.Avlaev, O. U., Burkhanov, A. A., Ismoilova, D. M., & Norkuzieva, M. A. (2020). Factors Affecting the Intellectual Dynamics of the Individual. Test Engineering & Management, 83, 693-702
- 6.Elmurzaeva, N. K., & Qorayev, S. B. (2021). Pedagogical Requirements for the Organization of the Educational Process in Specialized State Educational Institutions. Psychology and Education Journal, 58(1), 1078-1084
7. Умарова Н. Ахборот хавфсизлиги: муаммо ва ечимлар. - Т: “Академия”, 2008.